Karbamid nima?

// 12.03.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/karbamid-nima



Karbamid- GOST 2081-2010 - "B"- markali - H2N-CO-NH2. - Uglerod, azot, kislorod va vodoroddan tashkil topgan organik birikma. Oq kristall, kichik shar ko‘rinishida bo‘ladi. Suvda tez eriydi va hidsiz bo‘ladi. Tarkibidagi amid shaklidagi azot miqdori 46,2%ni tashkil etadi. Karbamiddan nafaqat qishloq xo‘jaligida, balki xom ashyo sifatida sanoatning ko‘plab sohalarida, tibbiyotda, kosmetik vositalarni ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Karbamid turli xildagi tuproq va o‘simliklarga mos tushuvchi universal va xavfsiz mineral o‘g‘it. Uni saqlash, undan foydalanish qulay, tuproqqa ham zarari kam. Tarkibida azot moddasi ko‘p.

Afzalliklari:

-qishloq xo'jaligi ekinlarining faol o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi

-tabiiy massaning o'sishini tezlashtiradi va ildiz tizimini normallantiradi;

-zararkunandalar va noqulay ob-havoga chidamliligini rivojlantiradi;

-erta bahorda gullashni kechiktiradi, ya’ni sovuqda gullarning nobud bo’lish ehtimolini kamaytiradi;

-transplantatsiya, sovuq va boshqa salbiy ob-havo sharoitlariga chidamlilikni oshiradi;

-ozuqaviy komponentlar hajmini oshiradi;

-hosilning ta'm parametrlarini yaxshilaydi;

-yuqori hosil beradi.